



Islomning avvalida hadisni tushunish va uning talqinidagi farqlar

I. Axmadjonov

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islomshunoslik mutaxassisligi 1-kurs magistranti

axmadjonovismatulloh@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada islomning dastlabki uch asri-sahobalar, tobe'inlar va taba' tobe'inlar davrida ular hadisni qanday tushunishgani va amalga tadbqiq etishgani borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: sahoba, tobe'in, taba' tobe'in, mutavotir, ohod, roviy.

Аннотация: В данной статье рассматривается, как сахабы, табиин и таби ат-табиины в первые три века ислама понимали хадисы и как применяли их на практике.

Ключевые слова: Сахаба, табиины, таби ат-табиины, мутаватир, ахад, равий.

Abstract: This article discusses how the sahabah, tabi'un, and taba' tabi'un the first three centuries of Islam understood and applied the hadith in practice.

Key words: Sahabah, tabi'un, taba' tabi'un, mutawatir, ahad, rawi.

Kirish. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda diniy ilmlarni o'rganish, ularni to'g'ri talqin qilish ahamiyatlidir. Jahonning turli mintaqalarida hadisi sharif va unga bog'liq ilmlarni o'rganishga bo'lgan sa'y-harakatlar tobora dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Jahon ilmiy tadqiqot markazlarida asl manbalarni o'rganish va ularni tahlil



qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu kabi tadqiqotlar hadis ilmini, uning shakllanish bosqichlarini, fiqhiy hukmlarni ishlab chiqishdagi ahamiyatini aniq bilmay, unga noto'g'ri yondashish natijasida islomga e'tiqod qiluvchilar orasida ixtilof, qarama-qarshilik kabi salbiy holatlar yuzaga kelishini oldini olishga qaratilgan.

Asosiy qism. Islom dinida hadis ilmi katta ahamiyatga ega va sharaflil ilm hisoblanadi. Alloh taolo o'zining oxirgi, mukammal dinini yetkazish uchun arab millatidan bo'lgan payg'ambarni tanladi. Haqiqatan, arablar qadimdan zehni kuchli, favqulodda yodlab qolish qobiliyatiga ega bo'lishgan. Islomning ilk davrlaridan boshlab Rasululloh (s.a.v.)ning atrofidagi sahobalar payg'ambarning barcha gaplari, bajargan ishlari, xulqlari, buyruq va qaytariqlarini kuzatib, uni o'z zehnlariida mustahkam o'rnatishdi.

Islomni qabul qilgan hududlar kengaya borishi bilan musulmonlar soni ham ko'paya boshladi. Ba'zi arab sahrolarida yashovchi qabilalar ham o'zlaridan bir necha kishilarni Payg'ambar (a.s.) oldilariga din ta'limotlarini o'rganib kelish maqsadida yuborishar edi. Bunday kishilar odatda bir necha kun Rasululloh (s.a.v.)bilan birga bo'lib, shariat hukmlarini o'rganishar, savollariga javob olib, qabiladoshlariga o'rgatish uchun yana ortga qaytishar edi. Bundan anglashilinadiki, biz istilohda "sahoba"deb zikr qiladigan insonlarning barchasi ham doimo Rasulullohning yonlarida bo'lib, u zotning barcha amallariga guvoh bo'lgan emas.

Shu o'rinda savol paydo bo'ladi: "sahobiy"deganda kimlar nazarda tutiladi? Bunga quyidagicha javob berish mumkin:

Lug'atda: "Sahoba" so'zi do'stlik va birga yashash ma'nosidagi "suhbat" so'zidan olingan.

Istilohda: "Sahoba"ning istilohdagi ta'rifi borasida ulamolar bir necha fikrlarni aytishgan. Biz bu yerda ikki mazhab(faqih va muhaddislar) nazdidagi eng kuchli fikrlarni keltirib o'tamiz.



Usul al-fiqh olimlari afzal deb bilgan ta'rif: "Sahobiy - bu urfda "falanchining sohibi" deb atasa bo'ladigan muddat miqdoricha uzluksiz va uzoq (muddat payg'ambar bilan)hamrohligi borlardir. Eng to'g'ri gapga ko'ra, bu narsa chegaralanmaydi (balki urfga qaraladi)"¹. Bu ta'rifning to'g'ri ekaniga dalil: Usul ulamolaridan ko'pchiligi suhbat – hamrohlik ma'nosida urf dalolatiga rioya qilganlar. Shundan kelib chiqib usul al-fiqh ulamolari "sahobiy" ismini Nabiyy (s. a. v.)bilan birga uzoq muddat hamsuhbat bo'lgan, u zot bilan uzluksiz ko'p birga bo'lgan va u zotdan ta'lim olgan kishiga nisbatan qo'llashadi.

Bu ta'rifning kelib chiqishi: Bu ta'rifning asli Sa'iyd ibn Musayyibdan rivoyat qilingan. U zot shunday der edilar: "Biz Rasululloh (s.a.v.) bilan birga bir-ikki yil yashagan hamda u zot bilan bir-ikki g'azot qilgan kishilarnigina sahobiy deb hisoblaymiz".

Muhaddislar afzal deb bilgan ta'rif: Ibn Hajar (r. a.) aytadilar: "Sahobiy - bu Nabiyy (s. a. v.)ni mo'min holida ko'rgan va musulmon holida vafot qilgan kishidir. Eng to'g'ri gapga ko'ra, orada murtad bo'lsa ham (yuqoridagi shaxs sahobiy hisoblanadi)"².

Bu ta'rif to'g'ri ekaniga dalil: Lug'atda "suhbat" lafzi davomiyligi shart qilinmagan suhbat hamrohlikning yolg'iz o'ziga qo'llanilaveradi. Muhaddislar mana shu yo'lga yurishdi, bu narsa ularning "sahobiy"ga bergan ta'riflaridan ma'lum bo'lib turibdi.

Shuningdek, mo'min kishi Nabiyy (s.a.v.)ga yo'liqqanda unda hosil bo'luvchi u zot (a.s.)ning sharaflari va barakalarining ulug'vorligi sababli muhaddislar ushbu ta'rifni tanlashdi. Shundan kelib chiqib, Nabiyy (s.a.v.)ga mo'min holida yo'liqqan barcha kishilarga "sahobiy" hukmini berishdi.

Sahobalar orasida ham faqihlari ya'ni, Qur'on va sunnatdan hukm chiqara oladigan, fatvo berishga salohiyatli bo'lganlari ma'lum adadda bo'lgan. Barcha sahobalar ham shar'iy

¹ Abu Iso at-Termiziy. Sunani Termiziy sharhi. 1-jild. Toshkent. Irfonnashr, 2021. -B 226

² Zafar Ahmad al-Usmoniy at-Tahanoviy. Qavoid fi ulum al-hadis. 1-jild. -Riyoz:Shirkat al-abikon B 86



masalalarda bu darajaga yetishmagan. Buning asosiy sabablaridan biri Rasululloh (s.a.v.) hayotlik davrlarida har qanday masalaga bevosita u zotdan javob olinar edi. Lekin, Payg'ambar (a. s.)ning vafotlaridan keyin ham diniy ahkomlar borasida yangidan-yangi masalalar paydo bo'la boshladi. Bularga javob olish uchun sahobalarning o'zlari ham oralaridagi faqih sahobalarga murojaat qila boshlashdi. Har faqih sahoba o'zining halqasida fatvo berar edi. Boshqa sahobalar esa ularga taqlid qilardilar.

Sahobalar biz hozir qo'llayotgan hadis atamasini avvalboshda ishlatishmagan. U davrda Payg'ambar (a. s.)ning hadisleri "xabar" deb yuritilgan. Keyinchalik sahobalar o'zlaridan keyingilarga shu xabarni aytayotib "حدثى" iborasini ishlatishgani sababli bu istiloh paydo bo'lgan.

Sahobalarning orasidagi mujtahidlar soni Kamol ibn Humom aytganidek, yigirmatadan oshmaydi. Kamol ibn Humom aytadi: "Sahobiylar orasidagi mujtahid-faqihlar yigirmatadan ko'p emas. Masalan, to'rt xulafoi roshidinlar, Abodilalar³ (Abdullohlar), Zayd ibn Sobit, Muoz ibn Jabal, Anas va Abu Hurayra, yana ozchilik sahobiylar. Qolganlar esa mazkur kishilarga murojaat qilashar, ulardan fatvo so'rashar edi"⁴.

Mujtahid sahobalar va ulardan keying ulamolarga ko'ra hadisning sahih bo'lishi uning sanad va matnining har ikkisi ham sahih bo'lishiga bog'liqdir. Masalan, bir hadis sanad jihatidan sahih bo'lishi, uni katta sahobalardan biri rivoyat qilgan bo'lishi mumkin. Lekin, bu rivoyatning matni sahih bo'lmasligi mumkin. Shunga ko'ra hadisning fiqhini bilgan sahoba va ulardan keying lar bu rivoyatga amal qilmaganlar va hujjat sifatida foydalanmaganlar.

Payg'ambar (a. s.) o'z hadislarida:

³ Fuqaholar nazdida "abodila" deb Ibn Mas'ud, Ibn Umar, Ibn Abboslarga aytiladi. Muhaddislar nazdida esa Ibn Umar, Ibn Abbos, Ibn Amr va Ibn Zubayrlarga aytiladi.

⁴ M. Abduqodirov. Muhaddislar va hanafiy fuqaholar nazdida hadis ilmlari. Toshkent. Hilol-Nashr, 2021. B 156



ثُمَّ الَّذِينَ يُلُونَهُمْ، ثُمَّ الَّذِينَ يُلُونَهُمْ، خَيْرُ النَّاسِ قَرْنِي

“Eng yaxshi davr mening davrim, so‘ng ularga yaqin bo‘lgan, so‘ng ularga yaqin bo‘lgan davrlardir”⁵ deganlar. Bundan ulamolar dastlabki uch avlod-sahobalar, tobe‘inlar va tab‘aa tobei‘inlar nazarda tutilgan degan fikrni ilgari surishadi.

Mana shu uch avlod Rasululloh (s.a.v.) ga eng yaqin davrda yashagan bo‘lsalarda, ular o‘rtalarida ham hadisni tushunishda fikriy ixtiloflar bo‘lib turgan. Buni Nabiyy (a. s.) ning o‘zlari ham:

اختلاف أصحابي لكم رحمة

“Sahobalarimning ixtilofi sizlar uchun rahmatdir”⁶ deya bayon qilganlar. Quyida shu holatlarni misollar tariqasida ko‘rib chiqamiz.

Muslim qilgan rivoyatga ko‘ra Umar ibn Hattob (r.a.)ga Fotima bintu Qaysning Nabiyy (s.a.v.) unga (iddadagi ayol borasida): “U uchun na nafaqa va na sukna-yashash joyi bordir” degan rivoyati xabari yetib keldi. Shunda Umar (r. a.):”Robbimizning kitobini va Nabiyyimiz sollallohu alahi vasallamning sunnatini bir ayolning gapi evaziga tark qilmaymiz. Biz bilmaymizki, balki u ayol (yuqoridagi hadisni)yodlab qolgandir, balki unutgandir. Iddadagi ayol uchun nafaqa va sukna-yashash joyi bordir. Alloh taolo:

لَا تُخْرِجُوهُنَّ مِنْ بُيُوتِهِنَّ وَلَا يَخْرُجْنَ إِلَّا أَنْ يَأْتِيَنَّ بِفَاحِشَةٍ مُبَيَّنَّةٍ

“Ularni uylaridan chiqarmanglar va o‘zlari ham chiqmasinlar, illo, ochiq-oydin fohisha ish qilgan bo‘lsalar (chiqarilurlar) ”⁷ deya marhamat qiladi”-dedilar.⁸

⁵ Buxoriy va Muslim rivoyati.

⁶ Bayhaqiy, Tabaroniy va Daylamiy rivoyati.

⁷ Taloq surasi, 1-oyat, Shayh Muhammad Yusuf Muhammad Sodiq. Tafsiri Hilol. Toshkent. Hilol Nashr. 2011

⁸ al- madxal ila usul al-hadis. Abdulmajid Turkmoniy. Dor ar- Rayohin. 2021 . B. 254



Bu o‘rinda Umar (r. a.) sanadi sahih bo‘lgan rivoyatni qabul qilmadir va amal ham qilmadi. Buning sababi, Umar ibn Hattob (r. a.) ning nazdida bu rivoyatning matni Alloh taoloning kalomiga va o‘zining nazdidagi sobit hadislarga muxolif kelgani sababli sahih emas edi.

Ohod xabarlar g‘olib zonni ifoda etadi. Bu esa roviy tomonidan xato va unutish sodir bo‘lish ehtimoli bor deganidir. Shariat usullari, Qur‘on va sunnat matnlari esa har qanday xato va kamchiliklardan holi bo‘lgan mutavotir darajasidadir.

Salafi solihlarning hadisni tushunish va uning talqinidagi farqli jihatlarni quyidagi misollar orqali batafsil ko‘rib chiqishimiz mumkin:

a) Abu Hurayra (r. a.) dan rivoyat qilinadi:” Payg‘ambar (s.a.v.)” Vaqtiki, sizlardan birortangizning idishini it yalasa, undagi narsani to‘kib yuborsin. So‘ngra u (idish)ni yetti marta yuvsin”, dedilar”⁹.

Boshqa bir rivoyatda: u(yuvish)lardan birinchisi yoki u(yuvish)lardan bittasi tuproq bilan bo‘lsin. Yana boshqa rivoyatda: yettinchisi tuproq bilan bo‘lsin, deyilgan (Beshovlari rivoyat qilishgan).

Bu hadis sahih, roviylari ishonchlidir. Hadisning zohriy ma‘nosidan ko‘rinadiki it tekkan idishni yetti marta yuvish shart. Shu o‘rinda tobe‘inlarning orasida faqih hamda muhaddis hisoblangan Ato (r.a) quyidagi rivoyatni keltiradi” Abu Hurayra (r. a) agar it idishdan yalab ichsa, uni to‘kib yuborib, uch marta yuvar edi”.

Ibn Jurayj (r.a) dan rivoyat qilinadiki:” Ato menga:” It yalagan idish yuviladi. Buning barchasi yetti, besh va uch martadan bo‘ladi”, dedi”

Demak, sahobiyni o‘zining amalini ko‘rgan va rivoyatini ham eshitgan tobe‘in Ato (r.a.) ga ko‘ra Abu Hurayra (r. a.) ning ham amali uch marta yuvish bo‘lgan. Bu o‘rinda

⁹ O‘sha asar 255-bet



sahobiy o‘z rivoyatiga xilof qildi, yoki tobei’in marfu holdagi hadisni tark qildi deyilmaydi. Balki, bu hadislardan it tekkan idishni uch martta yuvish vojib, yetti martta yuvish esa mustahabligi kelib chiqadi.

Hanafiylar: "Nabiy (s.a.v.) dan rivoyat qilingan yetti marta yuvish haqidagi hadislarda vojib qiladigan muayyan sanoq kelmagan. Agar kelgan bo‘lgan-da, yetti marta poklash to‘g‘risida rivoyatlar xilma-xil bo‘lmagan bo‘lardi. Ushbu bobda uchtdan kam sanoq ham kelmagan. Shuning uchun biz uchtdan yuqorisini mubolag‘a bo‘ladi, deganmiz. Uch marta yuvish haqidagi hadis agarchi sanadi yetti marta yuvish to‘g‘risidagi hadisga o‘xshash quvvatli bo‘lmasa-da, lekin Abu Ja‘far at-Tahoviy aytgan qiyosga muvofiq kelgani uchun undan ko‘ra kuchliroqdir. Uning sanadi hasan, roviylari ishonchli ekani aytiladi. Demak, u hadisni olib, dalilga asl qilishimizda xech kim bizni malomat qilolmaydi”¹⁰. deydi.

b) Abu Hanifa (r. a.) tobe’inlardan bo‘lganlari aniq bayon etilgan. Hanafiy mazhabiga ta’na toshini otadiganlar:” Hanafiy faqihlari hujjat sifatida olgan hadislarini “sihoh” asarlarida kelgan hadislariga ko‘ra sahih emas, balki, zaifdir”, deyishadi.

Shu o‘rinda bir muhim masalaga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Abu Hanifa (r. h.) yashagan davrlari bilan yuqoridagi “sihoh” to‘plamlari mualliflari yashagan davr o‘rtasida bir asr muddat o‘tgan. Bu to‘plamlar yozilib, shuhrat topgunga qadar yana bir asrga yaqin vaqt o‘tgan. Bunday uzun vaqt davomida Abu Hanifa (r. h.)ning paytlarida sahih sanadli hadisga zaiflik nuqsoni yetgan bo‘lish ehtimoli ham yuqori bo‘ladi.

Xulosa. Demak, islomning avvalida sahoba, tobe’in va taba’ tobe’inlar bilan Rasululloh (a.s)ning oralarida uzoq muddat o‘tmagani sababli hadislarini noto‘g‘risidan to‘g‘risini ajratib olish birmuncha oson bo‘lgan. Faqihlar biror hukm ishlab chiqishda foydalangan hadislarini sanadiga emas, ko‘proq amaliga e’tibor berishgan. Keyingi asrlarda

¹⁰ E'lous- sunan . Shayh Zafar Ahmad al-Usmoniy Tahonaviy. Toshkent, " Azon kitoblari" nashriyoti, 1-jild, B-355



muhaddis olimlar hadislarni kelasi avlodga sof holda yetib borishini ta'minlash maqsadida ularni jamlab, "sahih" to'plamlar tuzishgan. Tabiiyki, o'rtada birmuncha vaqt o'tishi e'tiboridan oldingi asrlarda maqbul-hujjat sifatida ishlatilgan sahih hadislar zaifga aylangan bo'lishi mumkin. Bundan anglashilnadiki, nafaqat asrlar, balki kam muddatdagi yillar davomida ham ommada adolat, sodiqlik sifatlari yo'qolishi natijasida hadis va roviyga oid qarashlarda ham o'zgarishlar yuz berar ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulmajid Juzajoniy. Qovaid fi ulum al-hadis an-nabaviy ala manhaji as-sadatinal hanafiyya. Istanbul. Dor al-kutubul arobiyya, 2021-396 b.
2. Abdulmajid Turkmoniy. al-madخال ila usul al-hadis. Urdun. Dor ar-rayohin, 2021.-344 b.
3. Abu Iso at-Termiziy. Sunani Termiziy sharhi. 1-jild. Toshkent. Irfonnashr, 2021.-400 b.
4. Abu Ja'far at-Tahoviy. Sharh Maoniy al-Osor. 1-2-jild. Lubnon. Dor al-kutub al-ilmiyya. 2018-613 b.
5. M. Abduqodirov. Muhaddislar va hanafiy fuqaholar nazdida hadis ilmlari. Toshkent. Hilol-Nashr, 2021.-256 b.
6. Zafar Ahmad al-Usmoniy Tahonaviy. E'lous sunan 1-jild. Toshkent. Azon kitoblari, 2022.-592 b.
7. Zafar Ahmad al-Usmoniy at-Tahanoviy. Qavoid fi ulum al-hadis. 1-jild. Riyoz: Shirkat al-abikon
8. Shayh Muhammad Yusuf Muhammad Sodiq. Tafsiri Hilol. Toshkent. Hilol Nashr. 2011